“AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR MEROSI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(08.04.2026 yil)

SHAHRISABZ

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTAB VA MAKTABGACHA TA’LIM VAZIRLIGI

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TARIX KAFEDRASI

SOHIBQIRON AMIR TEMUR TAVALLUDINING 690 YILLIGIGA BAG‘ISHLANADI

“AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR MEROSI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

(08.04.2026 yil)

Shahrisabz

UDC 37+069

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Tarix kafedrasi

Ilmiy muharrir:
F.B.Qanoatova - Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Tarix kafedrasi mudiri, dotsent.

Sharhlovchilar:

Tarix fanlari doktori N.O.Xushvaqov

Tarix fanlari doktori, (PhD) D.A.Maxmudov

Tarix kafedrasi o‘qituvchisi N.X.Begaliyev

"AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR MEROSI" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

Qarshi : Intellekt nashriyoti 2026 - Б. 424

Ushbu ilmiy maqolalar to‘plami Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va ma’naviy yuksalishi bo'yicha tadqiqotlar natijalarini nashr etadi. Nashrlarda ko'rib chiqilgan ko'plab masalalar 2026-yil 8-aprelda bo'lib o'tgan va kafedrasi tomonidan tashkil etilgan Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasining "Amir Temur va temuriylar merosi" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokama qilindi.

© Shahrisabz - 2026

AMIR TEMUR DAVRIDA SAMARQANDNING POYTAXTLIK MAQOMI HAQIDA

Bayqabilov Xusnudin Mardanovich
TDShU "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi,dotsent, geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: xusnudinbayqabilov@gmail.ru
https://orcid.org/0000-0002-0094-6013

Annotatsiya: Maqolada tarixshunoslikda Amir Temur davrida Samarqandning poytaxtlik maqomi yoritilgan. Shunigdek, maqolada poytaxt shaharlarining urbanistik xususiyatlari, shaharlar kategoriyasi tahlili bayon etilgan.

Kalit so'zlar: poytaxt, shahar, tarixiylik, zamonaviylik, shaharsozlik, urbanizatsiya, Samarqand, Toshkent.

Kirish. XX asrning 40-yillaridan boshlab Sharq mamlakatlarida kechgan dekolonizatsiya, milliy davlatchilikning shakllanishi va sovuq urush sharoitidagi geosiyosiy raqobat poytaxt shaharlarni nafaqat ma'muriy markaz, balki ideologik va makoniy modernizatsiya laboratoriyasiga aylantirdi. Bu davrda Dehli, Anqara, Pekin kabi markazlar milliy identitet konstruksiyasi, rejalashtirilgan urbanizatsiya va davlat boshqaruvi institutlarining hududiy konsentratsiyasi orqali yangi siyosiy makon modelini yaratdi. Zamonaviy tarixiy-geografik tadqiqotlar ushbu jarayonlarni "poytaxt fenomeni" doirasida qayta ko'rib chiqib, ularni makoniy kuch munosabatlari, institutsional markazlashuv va hududiy legitimatsiya nazariyalari bilan bog'lashni talab etmoqda. Shu jihatdan mazkur mavzu davlat va makon o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni yangi konseptual yondashuvlar asosida tahlil qilish imkonini beradi.

XXI asr boshlarida globallashuv, raqamli transformatsiya va transmilliy iqtisodiy integratsiya jarayonlari Sharq poytaxtlarining funksional tabiatini tubdan o'zgartirdi. Seul, Ar-Riyad, Toshkent singari markazlarda "aqlli shahar" (smart city), barqaror rivojlanish (sustainable development), yashil urbanizm va kreativ iqtisodiyot konsepsiyalari amaliy siyosat darajasiga ko'tarildi. Ilmiy adabiyotlarda poytaxtlar global tarmoqlar tuguni (global city networks), innovatsion klasterlar va geoiqtisodiy platformalar sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa tarixiy-geografik tahlilda yangi metodologik yo'nalishlar — fazoviy modellashtirish, GIS-texnologiyalar, urban metrikalar va komparativ makroregional tahlilni qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi.

Demak, mavzuning dolzarbligi nafaqat tarixiy jarayonlarni o'rganishda, balki zamonaviy urbanistik transformatsiyalarni tushuntirishda ham namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda poytaxt shaharlarni o'rganishda postkolonial nazariya, identitet va xotira makoni (memory studies), shuningdek, siyosiy ekologiya yondashuvlari keng qo'llanilmoqda. Qohira, Tehron, Jakarta kabi markazlarda tarixiy merosni saqlash, demografik bosim va ekologik xavfsizlik muammolari poytaxtlarning barqaror rivojlanish strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Shu bois XX asrning 40-yillari va XXI asr boshlarini qamrab olgan davriy kesimda Sharq mamlakatlari poytaxtlarining tarixiy-geografik evolyutsiyasini o'rganish yangi ilmiy paradigmalarga tayangan holda davlat, jamiyat va makon o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni aniqlash imkonini beradi. Mazkur yo'nalish jahon tarixi, siyosiy geografiya va urban tadqiqotlar integratsiyasida shakllanayotgan innovatsion ilmiy tendensiyalarni o'zida mujassam etishi bilan alohida dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism. Atoqli olim L.Alibekov ma'lumotiga ko'ra, Amir Temur nima uchun Samarqandni o'z davlatining poytaxti qilib tanladi, degan savolga har xil javob bor [1; 11-bet]. Lekin, bizningcha eng to'g'ri javob va uning obyektiv sababi – Samarqandning qulay geografik o'rni, shahar atrofida sersuv daryo, buloqlar shaharning o'zi uch tomondan tog'lar bilan o'ralganligi, bu yerda uch havo oqimi: tog'dan, daryolardan, shuningdek dala-o'rmon-o'tloqlardan keladigan oqim bir-biriga qo'shilib, orombaxsh iqlim barqaror bo'ladi. Samarqandga yaqin joylarda binokorlik materiallarining hamda qimmatli rangli va nodir metallarning katta-katta zahirasi bor edi. Bu boyliklar ma'lum darajada o'sha davrdayoq davlat xizmatiga qo'yilishi mumkin edi. Bo'lajak poytaxt uchun joy tanlashda ziyrak va uzoqni ko'ra biladigan sohibqiron hamma tabiiy omillarni chuqur tahlil qilib, Samarqandni tanladi.

Qalin archazor bilan qoplangan Zarafshon vodiysini o'rab turgan baland osmon o'par tog'lar, jo'shib oqayotgan Zarafshon daryosi, suvning serobligi, musaffo havosi va boshqa noyob xususiyatlari, sezgir, idrokli sohibqironni o'ziga jalb etdi. Bo'lajak poytaxtning gullab-yashnashi uchun zarur bo'lgan tabiiy boyliklarni nazardan qochirmagan. Haqiqatan, Samarqand joylashgan Zarafshon vodiysining o'rta qismi, o'zining musaffo havosi va yer usti, yer osti suvlarining serobligi bilan ajralib turadi.

Bu boyliklar ma'lum darajada o'sha davrdayoq davlat xizmatiga qo'yilishi mumkin edi. Bo'lajak poytaxt uchun joy tanlashda ziyrak va uzoqni ko'ra biladigan sohibqiron hamma tabiiy omillarni chuqur tahlil qilib, Samarqandni tanladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Zarafshon vodiysini o'rab turuvchi tog' tizmalari (Zarafshon va Turkiston tog' tizmalari), atmosfera havosi sirkulyatsiyasiga ta'sir etadi. Shuning uchun Samarqand shahriga yil bo'yi sharq (takrorlanishi 44%) va janubi-sharqiy tomondan (takrorlanishi 35%) yo'nalgan shamollar hukmron bo'lishiga imkon beradi. Sharqdan va janubi-sharqdan esuvchi bu shamollar Zarafshon vodiysini "shamollatib", uni sof toza tog' havosi bilan to'ldirib turadi. Shuning uchun ham Samarqand shahri va uning atroflari nisbatan salqin iqlimliligi bilan ajralib turadi. Bo'lajak poytaxt dunyoning go'zal shaharlaridan biriga aylanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun Amir Temur suv muammosini ham hisobga olgan. Darvoqe, Samarqand shahri hududi yer osti suvlariga nihoyatda boy bo'lib, 1 metrdan 20 metrgacha chuqurlikda joylashgan. Bu tabiiy boylik shubhasiz, Amir Temur e'tiborini jalb qilmasdan qolmaydi. Zarafshon tog'larining yon bag'irlaridan uzoqlashgan sari, yer osti suvlari yer yuzasiga yaqinlashadi va vodiyning ayrim pastqam joylarida qaynar buloq ko'rinishida chiqadi. Buloq qadimda Samarqand shahrining asosiy iste'mol suv resursi edi. Buloq suvlari ko'pgina joylarda o'zlariga o'zan hosil qilib, Samarqand shahri hududini kesib o'tar edi. Bunday ariqlar ayrim soylik joylarda ko'l, botqoqlik hosil qilib qamish va butazorlar bilan qoplanib yotar, Siyob daryosiga va u orqali Zarafshon daryosiga quyilar edi. Buloq suvlaridan oziqlangan tabiiy ariqlarni, ya'ni Obi-Mashhad, Navodon, Chashmai Siyob va boshqalarni shahar kanallari deb hisoblash mumkin. Bunday soylar qadimda ham, hozir ham shahar planirovkasiga sezilarli ta'sir qiladi. Samarqandda buloq suvlaridan oziqlangan eng sersuv ariqlardan biri Novadon bo'lib, uning umumiy suv sarfi 1930-yillarda 0,072 m3/sek, sutkasiga 6 mln. litrni tashkil etgan edi. Bunday miqdordagi suv, akademik A.R.Muhamadjonovning fikricha, Temur va Temuriylar davrida aholisi zich bo'lgan Samarqand shahri aholisining suvga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirishi mumkin edi. Poytaxtni tanlashda Zarafshon tog'larining qalin archa qoplami ham qulay geografik o'rin va tabiiy boyliklarni hisobga olgan buyuk sohibqironning e'tiborida bo'lgan.

Ma'lumki, qadimda archazorlarda yashaydigan hamma xalqlarning hayoti shu daraxt bilan bog'langan. Temur davri ustalari qurilishlarida archa daraxtidan keng foydalanishgan. Aynan archa yog'ochlari hozirga qadar Samarqandning qadimgi binolarini muhtasham ushlab turibdi. Metall eritishda ham archa ko'miri muhim rol o'ynagan [1; 12-bet].

O'zbekiston SSR Revkomining 1924-yil 22 noyabrda Toshkent shahrida bo'lgan majlisda O'zbekiston SSR poytaxti masalasi ham hal qilinadi. Uzoq tortishuvlardan keyin poytaxt qilib Samarqand shahri belgilanadi [2]. O'zbekiston SSR poytaxtini hamda markaziy davlat idorlarini Toshkent va Eski Buxorodan yangi poytaxt – Samarqand shahriga ko'chirish masalalari muhokama qilindi. Tashkili masalalarni hal qilish hamda boshqaruv apparatini shakllantirish uchun poytaxtni ko'chirish bo'yicha Markaziy komissiya tashkil qilinadi [3]. O'zbekiston SSR va uning hokimiyat organlarining tashkil topish jarayoni rasmiy tadbirlari Buxoroda bo'lib otdi. O'zbekiston SSR Muvaqqat Inqilibiy Qo'mitasi va O'zbekiston SSR Sovetlarining I ta'sis qurultoyi qarorlariga ko'ra 1925-yil 3-aprel kuni O'zbekiston SSR poytaxti Samarqand shahriga ko'chdi. Shu kuni Samarqandda poytaxt ko'chishi munosabati bilan bayram tadbirlari bo'lib o'tdi. Toshkentdan F.Xo'jayev, Y.Oxunboboyev, V.Ivanov va boshqa rahbarlardan iborat poyezd tarkibi Samarqandga yetib keldi. Fayzulla Xo'jayev Samarqand shahridagi temir yol vokzali, Registon va Samarqandning yangi shahar qismidagi Qizil maydondagi mitinglarda nutq so'zladi. Fayzulla Xo'jayev o'z nutqida Samarqand shahri O'zbekistonning ayni paytdagi yangi, shu bilan birga qadimiy poytaxti ekanligini e'tirof etib, mazkur shaharning poytaxt etib tanlanganligi sabablari to'g'risida miting ishtirokchilariga ma'lumotlar berdi. So'ngra 1925-yil 3-apreldan 1930-yil 20-sentyabrgacha Samarqand shahri O'zbekiston SSR poytaxti sanalgan [4]. Bu paytda Toshkentda Kremlning yangi tuzilgan O'rta Osiyo respubliklarini nazorat qilishga mo'ljallangan turli tashkilotlari VKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi, O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi, Turkiston fronti, O'rta Osiyo harbiy okrugi va boshqalar joylashtirilgan edi. Samarqand respublikaning markazida joylashgan bo'lib, bu holat yangi tashkil qilingan O'zbekiston SSR hududining barcha qismlarini amalda bir butun qilib birlashtirishga hamda sovet tashkilotlari ishini

jonlantirishga yordam berdi. Mahalliy hokimiyat organlari mustahkamlanib, ularning markaziy hukumat muassasalari bilan aloqalri kuchaygandan so'ng O'zbekiston SSR poytaxti 1930-yil 20-sentyabrda respublikaning eng muhim iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazi bo'lgan Toshkent shahriga ko'chirildi [5].

Xulosa. So'nggi yillarda poytaxt shaharlarni o'rganishda postkolonial nazariya, identitet va xotira makoni (memory studies), shuningdek, siyosiy ekologiya yondashuvlari keng qo'llanilmoqda. Qohira, Tehron, Jakarta kabi markazlarda tarixiy merosni saqlash, demografik bosim va ekologik xavfsizlik muammolari poytaxtlarning barqaror rivojlanish strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Shu bois XX asrning 40-yillari va XXI asr boshlarini qamrab olgan davriy kesimda Sharq mamlakatlari poytaxtlarining tarixiy-geografik evolyutsiyasini o'rganish yangi ilmiy paradigmalarga tayangan holda davlat, jamiyat va makon o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni aniqlash imkonini beradi. Mazkur yo'nalish jahon tarixi, siyosiy geografiya va urban tadqiqotlar integratsiyasida shakllanayotgan innovatsion ilmiy tendensiyalarni o'zida mujassam etishi bilan alohida dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

1. Алибеков Л.А. Амир Темурнинг ҳарбий ва сиёсий фаолиятида географик муҳит омили. Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 57-жилд. – Тошкент, 2020. – 368 б. – B.11.
2. Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 47-варақ.
3. Самарқанд ВДА, 65-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 47-варақнинг орқаси.
4. "Правда Востока", №75 (675). 5 апреля 1925 г.
5. "Правда Востока", 21 сентяря 1930 г.

HYDRAULIC STRUCTURES BUILT DURING THE TIMURID PERIOD: THE CASE OF SARDOBAS.

Begaliyev Nurbek Xasan o'g'li
ShDPI Tarix kafedrasi Mustaqil izlanuvchisi.e-mail:
nurbek050295@gmail.com
Tel:+998 90 934 47 97

Abstract. This article analyzes the historical significance of sardobas (water reservoirs) constructed in Central Asia, particularly in Mavarannahr, their role in the infrastructure of the Great Silk Road, and their architectural and engineering characteristics. The scientific study highlights the role of sardobas in establishing drinking water supply in desert regions, their construction technology, the materials used, and the criteria for their strategic placement. Furthermore, the processes of constructing and renovating sardobas during the reigns of Amir Timur and the Shaybanids are examined through historical sources and archaeological research.

59.	Shamsuddinova Xurshida Samariddin qizi *O'zbek tili va adabiyoti 1-bosqich yo'nalishi magistranti*	Temuriylar davrida tabiiy fanlarning rivojlanishi	**324**
60.	Toshova Maftuna Dusboboyevna – *ShDPI I-bosqich magistranti*	Temuriylar davrida tabiiy fanlar, astranomiyaga qaratilgan etibor, ahamiyati, rivojlanishi	**330**
61.	Uljayeva Sevara Abdirazzoqovna – *ShDPI I bosqich magistranti*	Temuriylar davrida tabiiy fanlarning rivojlanishi astronomiya matematika tibbiyot geografiya	**337**
62.	Xayrullayeva Mohichehra Azim qizi - *ShDPI Magistratura bosqichi til va adabiyot yo'nalishi 2-kurs talabasi*	Temuriylar davrida tabiiy fanlarning rivojlanishi: astronomiya, geografiya, matematika va tibbiyot	**342**
63.	**Bayqabilov Xusnudin Mardanovich -** ***Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi, dotsent, geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***	Amir Temur davrida Samarqandning poytaxtlik maqomi haqida	**348**
64.	Begaliyev Nurbek Xasan o'g'li – *ShDPI tarix kafedrasi mustaqil izlanuvchisi*	Hydraulic structures built during the timurid period: the case of sardobas.	**352**
65.	Yodgorova Husniyabonu Otabek qizi - *O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti*	Temuriylar davrida arxitektura va shaharsozlik: me'moriy xususiyatlari va keyingi davrlarga ta'siri.	**357**
66.	Xo'jayorova Munira Samadovna - *Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta'lim) yo'nalishi 1-bosqich magistiranti*	Temuriylar davrida arxitektura va shaharsozlik: me'moriy xususiyatlari va keyingi davrlarga ta'siri	**360**
67.	Xushmamatova Saida - *Shahrisabz davlat pedagogika instituti Magistranti*	Shahrisabz hududdidagi amir temur va temuriylar davri me'moriy obidalari	**365**
68.	Xurramova Iroda Dadajon qizi – *ShDPI magistranti*	Amir temur va temuriylar davri Bunyodkorlik ishlari (kesh – shahrisabz misolida)	**370**
69.	Xujanova Shaxina Abdullayevna - Xorijiy til va adabiyoti yunalishi magistranti	Temuriylar davri madaniy merosining zamonaviy turizm va ekoturizmdagi ahamiyati	**375**
70.	Xabibullayeva Shaxrizoda O'ktam qizi - Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti	Temuriylar davri me'morchiligining o'ziga xos xususiyatlari va uning Markaziy Osiyo shaharsozligiga ta'siri	**380**